МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/1 2025

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH USULLARI

Nurmatova Sh.Sh.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: milliy o'quv dasturi, integrativ, kompetensiyaviy, fonetika, morfologoiya, lingvistik kompetensiya, transformatsion grammatika, konteksli o'qitish
Ключевые слова: национальная учебная программа, интегративная, компетентная, фонетика, морфология, лингвистическая компетентность, трансформационная грамматика, контекстное обучение
Key words: national curriculum, integrative, competent, phonetics, morphology, linguistic competence, transformational grammar, contextual learning

РЕЗЮМЕ:
Ushbu maqolada o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini baholash jarayonlari va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha metod hamda usullar berib o'tilgan.
РЕЗЮМЕ:
В данной статье приведены процессы оценки коммуникативных компетенций учащихся и методика развития речевых компетенций.
SUMMARY:
This article presents the assessment processes of students' communicative competencies and methods of developing speech competencies.

Kirish. Milliy ta'lim tizimida bugungi kunda boshqa fanlar qatorida ona tilini o'qitish metodikasi va o'qitish natijasida egallangan nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni baholash yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga nazar tashlasak, boshqa fanlar bilan integratsiya qurshovida til ta'limi metod va usullari, texnologiyalariga ko'p e'tibor qaratilayotganligi seziladi. Ta'lim sohasidagi ushbu yuksak vazifalarni amalga oshirish uchun dunyoning eng ilg'or mamlakatlari ta'lim tizimida keng qo'llanayotgan "kompetensiya" tushunchasi xususida to'xtalib o'tish joiz bo'ladi. Zero, maqolamizning asosiy mavzusi ushbu tushuncha bilan bevosita bog'liq. Bundan tashqari, keyingi yillarda boshqa fanlar singari ona tili ta'limida ham "kommunikativ", "integrativ", "kompetensiyaviy" kabi yangicha ta'limiy yondashuvlar qo'llanilayotgani ham ma'lum.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunga kelib milliy ta'lim tizimimizga ham "kompetensiya" atamasi kirib keldi va tez ommalashdi. "Kompetensiya" atamasi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, o'rganilgan xorijiy pedagogik-psixologik va lingvistik adabiyotlarga tayanib, uning ilk bor Amerika Qo'shma Shtatlari Massachusets universitetida XX asrning 60–70-yillarida Noam Xomskiy tomonidan til nazariyasi va transformatsion grammatikaga oid nazariy ma'lumotlarni shakllantirishda vujudga kelganligiga guvoh bo'ldik. Ushbu atamaning tarkibidagi asosiy tushunchani ifodalovchi "kompetensiya" (competence) so'zi dastlab Noam Xomskiy tomonidan "grammatik kompetensiya", ya'ni gapiruvchi va tinglovchining til haqidagi bilimi, degan ma'noda qo'llanilgan. [1]

Tadqiqot metodologiyasi. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturida "Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish"ni nazarda tutadi. O'quvchilarda ushbu malaka talablarini rivojlantirish va takomillashtirishda esa ona tili o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Bu xususida psixolog olim E.G'oziyev shunday deydi: "O'smirning to'g'ri mantiqiy fikrlashini rivojlantirish borasida ona tili va adabiyot o'qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o'quvchilarni to'g'ri jumla tuzishga, ravon mulohaza qilishga, fikr yuritishga, yozishga o'rgatib boradi". Demak, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida ona tili o'qituvchisi kontekstli o'qitish va zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarga mazmunan va grammatik jihatdan to'g'ri jumla tuzishni, mustaqil fikr yuritishni hamda o'z fikr-mulohazalarini og'zaki hamda yozma bayon qilishda olingan bilimlarni amalda qo'llay olishni o'rgatib boradi. Ona tili nafaqat barcha fanlarni o'zlashtirishda, balki umuman, jamiyatda insonlarning o'zaro munosabatga kirishishida – muloqotning shakllanishida ham ahamiyatlidir. Ona tili darslarida milliy til - ona tilini o'qitishda har bir sinfda o'quvchilar egallashi ko'zda tutilgan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt lisoniy ko'nikmasini, ya'ni nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha talab etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yori rivojlantirilib boriladi [2].

Umumiy o'rta ta'lim tizimida ona tili fani bo'yicha o'quvchilar tomonidan nutqiy kompetensiyaning quyidagi 4 komponenti o'zlashtirilishi lozimligi belgilangan:

- tinglab tushunish: sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlaydi;

- gapirish: nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va stilistik me’yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg‘uni o‘rinli va to‘g‘ri qo‘yadi;

- o‘qish: turli janrdagi matnlarni ifodali va ta’sirchan o‘qiy oladi, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qiydi;

- yozish: fikr ifodasi mantiqan izchil, tinish belgilari, nutqda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalari, fikr ifodasida qo‘shma gapning oddiy va murakkab turlaridan foydalanadi. Ijodiy matnlar yarata oladi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi. [3]

Ona tili dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilar tomonidan nutqiy kompetensiya komponentlarini egallashlarining qator aspektlari mavjud. Bular quyidagilar:

1) adabiy til me’yorlarini o‘zlashtirish: ushbu aspekt ona tili dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni adabiy tilni sodda so‘zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o‘rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so‘zlashuv uslublari bilan tanishtiradi;

2) jamiyatning har bir a’zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutqiy kompetensiyalarni, ya’ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish; ushbu aspekt doirasida o‘quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og‘zaki-so‘zlashuv nutqidan farqini bilib oladi;

3) ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning nutq madaniyatini uzluksiz takomillashtirib borish: til jamiyat a’zolari o‘rtasidagi eng muhim kommunikativ vosita. Tilning ushbu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o‘quvchilarning kommunikativ nutqiy malakasi hamda madaniyatiga alohida e’tibor bermoq lozim bo‘ladi.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun ona tili o‘qituvchisi o‘quvchilar bilan rejali ish olib bormog‘i lozim bo‘ladi. Ushbu jarayonda “O‘quvchilar nutqini o‘stirish ustida ishlash” tushunchasi mazmun doirasiga qanday tushunchalarni qamrab olishini bilib olish eng asosiy jihatlardan biridir.

Ona tili ta’limida nutq o‘stirishda uch yo‘nalish ajratib ko‘rsatiladi:

Ko‘rsatilgan uch yo‘nalish parallel olib boriladi: lug‘atlar bilan ishlash gap uchun material beradi; so‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash o‘quvchini nutqiy muloqotga tayyorlaydi. O‘z navbatida, bog‘lanishli hikoya va insho lug‘atni boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. [4]



Taxlililar va natijalar. Ma’lumki, 5–6-sinflarda o‘quvchilar o‘yinlarni yaxshi ko‘rishadi. Ushbu jihatlar hisobga olinib, ona tili dars mashg‘ulotlarida didaktik o‘yin-topshiriqli metodlardan foydalanish jarayonida o‘quvchilar ba’zi orfografik va grammatik qoidalarni juda tez o‘zlashtirib olishadi hamda uni uzoq vaqt esda saqlab qolishadi. Orfografik qoidalarni o‘zlashtirib olishda turli xil didaktik metodlardan foydalanish o‘qituvchiga katta yordam beradi. Quyida shunday metodlardan biri keltirildi:

“Imlo savodxoni” metodi. Bu metod orfografik metodlar turiga kiradi. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linishadi. Har bir guruhdan bir nafardan o‘quvchi navbat bilan doska yoniga chiqariladi. O‘qituvchi yoziladigan so‘zlarni aytib turadi, o‘quvchilar tomonidan navbat bilan o‘nta so‘z doskaga yoziladi. So‘zlar iloji boricha o‘zlashtirma qatlamga mansub bo‘lishi va murakkabroq orfografik xarakterga ega bo‘lgani ma’qul (1-jadvalga qarang).

2.1.2-jadval

1.	**Tatbiq**	**Mas’ul**
2.	Mudofaa	Mutolaa
3.	Ayyuhannos	Istihola
4.	Taassuf	Tanaffus
5.	Minnatdor	Xokkey
6.	Xohlamoq	Hoynahoy
7.	Neyronlar	Xolesterin

8.	Buxgalteriya	Bandargoh
9.	Akkumulyator	Aeroport
10.	Biznes	Xomxayol

“Imlo savodxoni” metodi

Jadvalda berilgan so‘zlarni har bir o‘quvchi sinf doskasiga ustun shaklida yozadi. So‘zlarning yozilishi qolgan o‘quvchilar tomonidan kuzatiladi. Xatolar guruh bo‘yicha hisoblanadi. Agar so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini sinfdagi barcha o‘quvchilar topa olmasa, uning to‘g‘ri yozilishini o‘qituvchi yozib ko‘rsatadi hamda ushbu so‘zlarning anglatgan lug‘aviy ma’nolarini o‘quvchilarga tushuntirib ketadi. Bu esa, o‘quvchilarda ushbu so‘zlarni nutqiy faoliyatida o‘rinli qo‘llay olishdan iborat bo‘lgan nutqiy kompetensiyani shakllantiradi. Har bir guruh a’zosi yo‘l qo‘ygan xatolarni sanaydi. Har bir to‘g‘ri yozilgan so‘zga bir balldan beriladi. Masalan, birinchi guruh o‘nta so‘zdan ikkita xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, unga sakkiz ball beriladi. Har ikkala guruh o‘quvchilari so‘zlarni tekshirib xatolarni sanab boradilar. To‘g‘ri yozilgan har bir so‘z uchun ball beriladi. Agar biror guruhning o‘quvchilari bitta ham xatoga yo‘l qo‘yishmagan bo‘lsa, u holda qo‘shimcha tarzda yana beshta so‘z yoziladi. Oxirida g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ona tili ta’limi natijasida o‘quvchilarda shakllanadigan nutqiy kompetensiyani baholash tizimi shunday bo‘lishishi lozim-ki, unda o‘quvchilar nazorat va baholash jarayonida ishtirok etib borishlari orqali o‘z-o‘zini hamda bir-birini bilimini baholash ko‘nikmalarini egallay oladigan imkoniyat yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bagarić V., Mihaljević D.J. Defining Communicative Competence. Metodika: Vol. 8, br. 14 (1/2007), – P. 94-103.

2. Mambetova Lobar Mirzavali qizi. Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari. International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” March 13, 2024. 387-389

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo‘yicha B 1 darajadagi malaka talablari. 16-bet. Manba: https://lex.uz/docs/3153714

4. Qodirova S.A. Ona tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Kamolot, 2022. -160 b. 14-bet.